



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI**

"Korrupsiya (poraxo'rlik) insofsiz va vijdonsiz xulq-atvor shakllaridan biri sifatida"

Umumiy o'rta ta'lim maktab 10-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan dars materiallari

Korrupsiya tushunchasi

Korrupsiya — mansab yoki xizmat vakolatidan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanish bilan bog'liq **noqonuniy harakat**dir. Bu tushuncha lotincha "*corruptio*" so'zidan olingan bo'lib, buzilish, afsod bo'lish ma'nosini anglatadi.

Pora olish va berish


Muayyan xizmat yoki qaror evaziga pul, sovg'a yoki boshqa moddiy manfaat almashish.

Tanish-bilishchilik

Adolatli tanlov o'rniga shaxsiy aloqalar orqali noqonuniy imtiyoz berish yoki olish.

Vakolatni suiiste'mol qilish

Mansab yoki lavozim imkoniyatlarini shaxsiy yoki uchinchi shaxs manfaati uchun noto'g'ri ishlatish.



Korrupsiya nima uchun xavfli?

Halol jamiyatda har bir inson o'z mehnati va bilimi bilan muvaffaqiyatga erishadi. Korrupsiya mavjud joyda esa adolat o'rnini shaxsiy manfaat va pora egallaydi. Bu oddiy bir qonunbuzarlik emas — bu butun jamiyat poydevorini zaiflashtiruvchi illatdir.



Adolat buziladi

Mezon yo'qoladi: bilim, mehnat emas — pul va tanishlik g'olib chiqadi.



Taraqqiyotga to'siq

Davlat va jamiyat rivojlanishi sekinlashadi, resurslar noto'g'ri taqsimlanadi.



Ishonch yo'qoladi

Fuqarolarning davlat organlari va tizimga bo'lgan ishonchi susayadi.



Axloq yemiriladi

Halollik, vijdon, adolat kabi qadriyatlar jamiyatda ahamiyatini yo'qotadi.



Korrupsiyaga qarshi kurashish — bu har bir davlat va jamiyatning muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Har birimiz bu kurashning ishtirokchisimiz.



Kundalik hayotdagi korrupsiyaviy holatlar

Korrupsiya faqat yuqori lavozimli mansabdor shaxslar yoki yirik tashkilotlar faoliyatida uchraydigan hodisa emas. U **kundalik hayotda ham oddiy ko'rinishda** namoyon bo'lishi mumkin. Fuqaro o'z muammosini tezroq hal qilish, navbatni chetlab o'tish yoki imtiyoz olish maqsadida pora, sovg'a yoki tanish-bilishchilikdan foydalansa — bu korrupsiyaviy holat hisoblanadi.

Korrupsiyaning to'rt ko'rinishi



Xizmatni tezlashtirish uchun pora

Hujjat tayyorlash, ma'lumotnoma olish, ruxsatnoma rasmiylashtirish yoki tibbiy xizmatdan navbatsiz foydalanish uchun noqonuniy haq berish. Bu holat ham fuqaro, ham xodim uchun qonunbuzarlikdir.

Tanish-bilishchilik orqali imtiyoz

Ishga joylashish, o'qishga kirish, uy-joy, yer uchastkasi yoki subsidiyalarni adolatli tanlovsiz, aloqalar orqali qo'lga kiritish. Natijada munosib va bilimli shaxslar chetda qoladi.




Ta'limdagi korrupsiya

Imtihon yoki sinovlardan yaxshi baho olish uchun pul, sovg'a yoki manfaat taklif qilish. Bu holat bilim emas, pul yoki tanishlik ustun bo'lishiga olib keladi va ta'lim sifatini pasaytiradi.

Davlat xizmatlarini suiiste'mol qilish

Navbatni kutmasdan xizmat olish, soxta hujjat orqali imtiyozga ega bo'lish, xizmat ko'rsatuvchi xodim bilan kelishib qonuniy talablarni chetlab o'tish davlat boshqaruviga ishonchni pasaytiradi.



Nima uchun odamlar korrupsiyani oqlaydi?

Ayrim fuqarolar bunday holatlarni turli bahonalar bilan oqlamoqchi bo'ladi. Ammo bu bahonalar korrupsiyani qonuniy qilmaydi — aksincha, uning yanada kengayishiga zamin yaratadi.

"Hamma shunday qiladi"

Keng tarqalgan noto'g'ri tasavvur. Boshqalar ham xato qilsa, bu bizga ham xato qilish huquqi bermaydi.

"Bu oddiy yordam"

Noqonuniy manfaat almashishni "yordam" deb atash uning mohiyatini o'zgartirmaydi.

"Ishim tezroq bitadi"

Qulaylik uchun qonunni buzish keyinchalik ko'plab muammolarga sabab bo'ladi.

- ⊗ Aynan shunday befarq munosabat korrupsiyaning jamiyatda keng yoyilishiga sabab bo'ladi. Kichik korrupsiyadan katta adolatsizlik boshlanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashning birinchi qadami — bu o'zimizning kundalik xatti-harakatlarimizni nazorat qilishdir. **Pora bermaslik, noqonuniy imtiyoz izlamaslik va korrupsiyaviy holatlarga befarq bo'lmaslik** — sog'lom jamiyat qurishning muhim shartidir.

Haydovchilik guvohnomasi markazi

Vaziyat tavsifi

Shahardagi haydovchilik guvohnomasini berish markazida nazariy va amaliy imtihonlar qat'iy tartibda o'tkazilishi lozim edi. Har bir nomzodning bilimi test sinovlari, haydash ko'nikmasi esa amaliy imtihon orqali baholanishi belgilangan edi.

Biroq ayrim nomzodlar o'rtasida "**ma'lum bir summa to'lansa, imtihondan o'tish osonlashadi**" degan mish-mishlar tarqaldi. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, ba'zi vositachilar orqali mas'ul xodimlarga pora berish evaziga imtihon natijalari ijobiy hal qilingan holatlar aniqlangan. Natijada yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lmagan shaxslar ham haydovchilik guvohnomasini qo'lga kiritgan.

Muhokama savollari

1. Mazkur vaziyatda korrupsiya nimada namoyon bo'lmoqda?
2. Qaysi harakatlarni poraxo'rlik deb hisoblash mumkin?
3. Bu holatda qaysi subyektlar qatnashmoqda?
4. Nega bu jarayon adolat va tenglik tamoyillarini buzadi?
5. Bu holatning oddiy qoidabuzarlikdan farqi nimada?
6. Agar bunday tizim davom etsa, jamiyat xavfsizligiga qanday tahdidlar yuzaga keladi?



Haydovchilik ko'nikmalarisiz yo'lga chiqqan shaxs nafaqat o'zi, balki boshqalarning ham hayotiga xavf tug'diradi. Bu korrupsiyaning jismoniy xavf yaratuvchi ko'rinishidir.

Keys 1 tahlili: kimlar ishtirokchi?

Bu vaziyatda korrupsiyaviy jarayon bir necha tomonni o'z ichiga oladi. Har bir ishtirokchi turli darajada javobgarlik yukini ko'taradi.

Nomzod (pora beruvchi)

Imtihondan o'tish uchun noqonuniy yo'lni tanlagan shaxs. Bilim va tayyorgarlik o'rniga pul ishlatgan.

Mas'ul xodim (pora oluvchi)

O'z xizmat vakolatini suiiste'mol qilib, pul evaziga imtihon natijalarini soxtalashtirgan shaxs.

Vositachi

Ikki tomon o'rtasida noqonuniy kelishuvni tashkil qilgan shaxs. Qonunda vositachilik ham alohida jinoyat sifatida ko'rsatilgan.



Xavfsiz haydovchiga ega bo'lmagan yo'lda yurish — bu korrupsiyaning to'g'ridan-to'g'ri hayotga tahdid soluvchi oqibatidir. Har bir qoidabuzarlik zanjirining oxirida odamlar zarar ko'radi.

Poliklinikadagi navbat

Vaziyat tavsifi

Shahardagi poliklinikalardan birida navbat juda uzun edi. Rasmiy tartib bo'yicha bemorlar navbat asosida qabul qilinishi lozim edi. Biroq ayrim fuqarolar shifokorga oldindan "**minnatdorchilik**" bildirib, ya'ni pul berib, navbatsiz qabulga kirishdi.

Navbatda uzoq vaqt turgan boshqa bemorlar, jumladan, keksalar va farzandini yetaklagan ota-onalar bu holatdan norozi bo'lishdi, biroq ko'pchilik bunga e'tiroz bildirishga jur'at etmadi.

Muhokama savollari

1. Bu vaziyatda korrupsiya qanday ko'rinishda namoyon bo'lmoqda?
2. "Minnatdorchilik" bilan poraning nima farqi bor?
3. Nega ayrim odamlar bunday yo'l tutadi?
4. Bu holat boshqa fuqarolarning huquqlariga qanday ta'sir qiladi?
5. Nega jamiyatda bunday holatlar "oddiy hol" deb qaraladi?
6. Agar bu xatti-harakatlar davom etsa, tizim qanday ishlashni boshlaydi?

"Minnatdorchilik" va pora — farqi bormi?

Ko'pchilik "minnatdorchilik" va "pora" o'rtasidagi farqni bilmaydi yoki bilgisi kelmaydi. Aslida bu ikki tushuncha orasidagi chegara aniq belgilangan.

MINNATDORCHILIK



Hizmatdan so'ng, ixtiyoriy minnatdorchilik. Kutilmagan, qonuniy va axloqiy.

PORA



Hizmatdan oldin yoki vaqtida, ta'sir o'tkazish uchun. Majburiy, kutilgan, noqonuniy va g'ayriaxloqiy.

Agar pul yoki sovg'a xizmatdan **oldin** yoki xizmat ko'rsatish **sharti sifatida** berilsa — bu hamisha poradir. Nomini "minnatdorchilik", "sovg'a" yoki "yordam" deb atash uning mohiyatini o'zgartirmaydi.

Korrupsiyaga kim aybdor?

Korrupsiya odatda **ikki tomon** — pora beruvchi va pora oluvchi — ishtirokida sodir bo'ladi. Shu sababli korrupsiyaviy jinoyatlarda har ikki tomon ham qonun oldida javobgar hisoblanadi. Ayrim hollarda vositachilar, tanish-bilishlar yoki noqonuniy kelishuvni tashkil qilgan boshqa shaxslar ham javobgarlikka tortilishi mumkin.

Pora oluvchi — mansabdor shaxs

O'zining mansab yoki xizmat vakolatidan foydalanib, noqonuniy manfaat ko'rishga harakat qiladi. Xizmat vazifasini halol va qonuniy bajarish o'rniga, pul, qimmatbaho buyum, xizmat yoki boshqa manfaat evaziga qaror qabul qiladi. Bu davlat organlarining shaffof va adolatli ishlashiga to'g'ridan-to'g'ri zarar yetkazadi.

Pora beruvchi — fuqaro yoki tashkilot

O'z manfaatini tezroq yoki osonroq hal qilish maqsadida qonuniy yo'l o'rniga noqonuniy usulni tanlaydi. "Ishga majbur bo'ldim" yoki "hamma shunday qiladi" degan bahona qonuniy javobgarlikni bekor qilmaydi. Pora berish ham — jinoyat.

Vositachi — oraliq bo'g'in

Pora beruvchi bilan pora oluvchini bog'lash, pul yoki manfaatni yetkazib berish, kelishuv tashkil qilish kabi harakatlar ham noqonuniy hisoblanadi. Vositachilik qilish — alohida jinoyat.

Oliy ta'lim muassasasiga kirish

Vaziyat tavsifi

Shaharda oliy ta'lim muassasasiga kirish jarayonida ayrim abituriyentlar ota-onalari orqali tanish-bilish qilib, "**yordam**" evaziga o'qishga kirish imkoni borligi haqida eshitib qolishdi. Ayrim ota-onalar bu taklifga rozi bo'lib, vositachilar orqali noqonuniy yo'lni tanladi.


Boshqa abituriyentlar esa faqat o'z bilimiga ishonib, imtihonni mustaqil topshirdi. Natijada ba'zi hollarda tayyorgarligi past bo'lgan abituriyentlar ham talabalikka qabul qilindi.

Muhokama savollari

1. Bu vaziyatdagi korrupsiya uchun kimni aybdor deb hisoblash mumkin: pul taklif qilgan shaxsnimi, olgan shaxsnimi yoki vositachinimi?
2. Nega korrupsiya aksariyat hollarda ikki tomonlama jarayon hisoblanadi?
3. Ota-onaning bu qarori farzandining kelajagiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
4. Agar jamiyatda ko'pchilik shu yo'lni tanlasa, ta'lim tizimi qanday ahvolga tushadi?
5. Korrupsiyani faqat jazolash orqali yo'q qilib bo'ladimi yoki boshqa omillar ham muhimmi?

Korrupsiyaga qarshi kurashda mas'uliyat

Korrupsiyaga qarshi kurash faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi emas. Bu jarayonda barcha ijtimoiy kuchlar birgalikda harakat qilishi zarur. Faqat birgalikda kurashgandagina korrupsiyani yenggimiz mumkin.



Korrupsiya va poraxo'rlikning oqibatlari

Korrupsiya jamiyat taraqqiyotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadigan illatdir. Uning oqibatlari barcha sohalarda — iqtisodiyotdan tortib, fuqarolar xavfsizligiga qadar — namoyon bo'ladi. Bu faqat moddiy zarar emas, balki jamiyatning ma'naviy va axloqiy poydevorini ham zaiflashtiruvchi hodisadir.

Adolatning poymol bo'lishi

Korrupsiya mavjud joyda adolat poymol bo'ladi. Halol va mehnatkash insonlar o'z imkoniyatlaridan to'laqonli foydalana olmaydi. Bilim va mehnat emas, pul va aloqalar g'alaba qozonadi.

Iqtisodiy zarar

Davlat mablag'larining maqsadsiz va noqonuniy sarflanishi, byudjet yo'qotishlari, investitsiyalar qo'rquvining oshishi va iqtisodiy rivojlanishning sekinlashishi.

Ishonchning yo'qolishi

Odamlar davlat tizimida adolatsizlikka duch kelsa, hukumatga bo'lgan ishonch pasayadi. Bu esa fuqarolar va davlat o'rtasidagi munosabatlarni zaiflashtirib, befarqlikni kuchaytiradi.

Axloqiy qadriyatlarning yemirilishi

Korrupsiya halollik, adolat va vijdonlilik kabi qadriyatlarga putur yetkazadi. Jamiyatda "muvaffaqiyat uchun pora berish kerak" degan noto'g'ri tasavvur shakllana boshlaydi.

Yangi ko'prikning qulashi

Vaziyat tavsifi

Shaharda qurilgan yangi ko'prik qisqa muddat ichida yaroqsiz holga kelib qoldi. Tekshiruvlar natijasida qurilish jarayonida **sifatsiz materiallar ishlatilgani va ayrim mablag'lar noqonuniy o'zlashtirilgani** aniqlandi.

Natijada ko'prikdan foydalanish xavfli bo'lib, transport harakati cheklandi va aholi uchun qo'shimcha noqulayliklar yuzaga keldi. Qurilish uchun sarflangan davlat mablag'lari esa yo'qoldi — xazinaga qaytmadi.

Muhokama savollari

1. Bu vaziyatda korrupsiya qanday oqibatlarga olib keldi?
2. Korrupsiya nega nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy xavf ham tug'diradi?
3. Bunday holatda oddiy fuqarolar qanday zarar ko'rdi?
4. Agar korrupsiya qurilish, tibbiyot yoki ta'lim sohasida yuz bersa, buning oqibatlari qanday bo'lishi mumkin?
5. Nega korrupsiya uzoq muddatli ishonchsizlikka sabab bo'ladi?
6. Ushbu holatning oldini olish uchun qanday tizimli choralar ko'rish zarur?

Korrupsiya qaysi sohalarda eng xavfli?

Korrupsiya har qanday sohada zarar keltirsa-da, ayrim tarmoqlarda uning oqibatlari ayniqsa og'ir va hayot uchun xavlidir.



Qurilish va infratuzilma

Sifatsiz materiallar ishlatilsa, ko'priklar, binolar, yo'llar xavfli holga keladi. Fuqarolar hayoti xavf ostida qoladi. Ko'prik misoli — klassik namuna.



Tibbiyot

Qalbakilashtirilgan dori-darmon, sifatsiz tibbiy xizmat, navbatsiz qabul — bularning barchasi bemorlarning sog'lig'iga bevosita zarar yetkazadi.



Ta'lim

Bilim o'rniga pul bilan diploma olish — malakasiz mutaxassislarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bu muammo barcha sohalarga tarqaladi.




Huquq-tartibot tizimi

Sudda, prokuratura yoki politsiyada korrupsiya bo'lsa, adolat butunlay yo'qoladi. Aybdorlar erkin yursa, begunohlar jazo ko'radi.

Korrupsiya uchun qonuniy javobgarlik

O'zbekiston qonunchiligida korrupsiyaviy jinoyatlar uchun qat'iy javobgarlik belgilangan. Pora olish, pora berish yoki vositachilik qilish holatlari uchun bir necha turdagi jazolar qo'llanilishi mumkin.



Jazoning og'irligi korrupsiyaning miqdori, ko'lami va shaxsning mansab lavozimine bog'liq. Mansabdor shaxslar lavozimidan ozod etilishi va davlat xizmatida ishlash huquqidan mahrum qilinishi ham mumkin. Qonun bu masalada hech kimga istisno qilmaydi.



O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni 2017-yilda qabul qilingan. Bu qonun korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asosini belgilaydi.

Korrupsiyasiz jamiyat qurish yo'llari

Korrupsiyaga qarshi kurash — bu faqat qonuniy jazo va nazorat bilan cheklanmaydi. Jamiyatda sog'lom muhit yaratish uchun tizimli va uzoq muddatli harakatlar talab etiladi.



Huquqiy savodxonlikni oshirish

Fuqarolar o'z huquq va majburiyatlarini bilgandagina korrupsiyaga murosasiz bo'la oladi. Maktabdan boshlab huquqiy ta'lim zarur.



Shaffoflik va oshkoralikni ta'minlash

Davlat xaridlari, byudjet sarflari va qarorlar qabul qilish jarayonlarini ochiq va nazorat ostida saqlash korrupsiyaga imkon qoldirmaydi.



Raqamlashtirish va avtomatlashtirish

Davlat xizmatlarini onlayn formatga o'tkazish insoniy omilni kamaytiradi va pora berish imkoniyatini cheklaydi.



Axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash

Halollik, adolat, vijdon va mas'uliyat tamoyillarini oilada, maktabda va jamiyatda doimiy targ'ib qilish eng asosiy profilaktik choralardan biridir.

Xulosa: har birimiz mas'ulmiz

Korrupsiyasiz jamiyat — bu faqat qonunchilik va jazoning natijaligina emas, balki har bir fuqaroning shaxsiy tanlovi va mas'uliyatining mahsulidir.

Pora bermang

Qulaylik uchun qonunni buzish — kelajakda ko'proq muammo tug'diradi. Qonuniy yo'lni tanlang.

Noqonuniy imtiyoz izlamang

Tanishlar orqali olingan imtiyoz boshqalarning huquqini poymol qiladi va adolatni buzadi.

Befarq bo'lmang

Korrupsiya holatini ko'rsangiz, tegishli organlarga xabar bering. Sukut — rozi bo'lish bilan tengdir.

Namuna bo'ling

Halollik va adolatni o'z hayotingizda ko'rsating. Atrofingizdagilarga ijobiy ta'sir ko'rsating.

"Halollik — bu eng yaxshi siyosat. Korrupsiyaga qarshi eng kuchli qurol — bu har bir fuqaroning vijdoni va mas'uliyatidir."